

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK JIHATLARI

Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya fakulteti "Oila psixologiya" yo'nalishi o'qituvchi

Musayev Omadbek Sohibjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya fakulteti "Oila psixologiya" yo'nalishi talabasi

Annatatsiya:

Ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashda dars jarayonidan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb yetadi. O'quv dasturida ko'rsatilgan xalqimizning asrlar davomida yaratgan ma'naviy qadriyatlari, insonlarning muomala madaniyati, ilmning qadri haqidagi va boshqa mavzular ma'naviyaxloqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Аннотация:

Эффективное использование учебного процесса имеет большое значение в воспитании духовно-нравственных качеств. Духовные ценности, созданные нашим народом на протяжении веков, культура поведения людей, ценность науки и другие темы, отраженные в учебной программе, имеют важное значение в реализации духовно-нравственного воспитания.

Annotation:

Effective use of the lesson process is of great importance in the education of spiritual and moral qualities. The spiritual values created by our people over the centuries, the culture of people's behavior, the value of science and other topics shown in the curriculum are important in the implementation of spiritual and moral education.

Kalit so'zlar: Ta'lif, insonparvar, demokratik, tarbiya, zardushtiylik, ma'naviy-axloqiy, donishmandlik, qahramonlik, didaktik qarashlar.

Rivojlanib kelayotgan malakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam kasbiy va axloqiy madaniyatga ega bo'lган, axloqli yoshlarni shakllantirish bugun zaruratga aylandi, hamda yurtimizda diqqat markazda turgan masalalardan biridir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Ta'lif tizimini ham zamон talablariga mos qayta qurish, o'quvchilar bilimi bilan birgalikda ularning madaniyati ham rivojlantirish davr talabi hisoblanadi.

Yurtimizda insonparvar, demokratik, huquqiy davlat qurilishi avj olgan hozirgi zamonda yoshlarimizni bilimdon va yuksak madaniyatli barkamol shaxs qilib shakllantirishda ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq tarzda tatbiq qilish zarurdir. Aytib o'tganlarni amalga oshirish uchun talabalarda ta'lim jarayonini olib boriladigan o'qituvchilardan doimiy ravishda o'z ish faoliyatlarini rivojlantirish, o'qitish, tarbiyalash ishlarining yangicha yondashuv vositalarini izlab topib, ijodiy mehnat qilishlikni talab qiladi.

"Ma'rifatparvarlik biz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va tarqqiyot ham, farovon hayot ham bo'lmaydi".

Butun jahon hamjamiyatining har qaysi mamlakatning obro'si aholisining turmush tarsi hamda siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. Globallashuvga qarab borayotgan hozirgi kundagi davlatning xalqaro raqobat jarayoni rejalariga tez moslasha uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy ethan davlatlarning asosiy ustunligi – ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari borligi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda oliy ta'limining asosiy mohiyati o'qitishning shaxs xotirasiga asoslangan turini, uning tafakkuriga, yangiliklarni yarata olishi qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan turiga almashtirishdan iborat. Bundan talabalarning xotirasi yomon ishlaydi degan xulosa chiqmaydi, albatta. Balki talabalik yoshida shaxsning ruhiy o'sish darajasi natijasida mexanik xotira susayib, mantiqiy xotira faoliyati ortadi, ya'ni bilim faol tafakkur jarayonida yaxshi o'zlashtirilishini ko'rsatadi. Bugungi kunda pedagogika fanlari kimki ko'proq fikrlasa, shu ko'proq esda saqlay olishini tasdiqladi. Miyaning faol ishlashida xotira yaxshi ishlaydi. Tafakkurga asoslangan ta'lim xotiraning ham maksimal foydali ishini o'z ichida oladi.

Shuningdek, tafakkur bilimga bo'lган qiziqishni ham oshiradi. Qayerda fikrlash bo'lsa, o'sha yerda bilimga intilish, bilim olishga qiziqish kuchli bo'ladi. Shuningdek, tafakkurga tayangan ta'lim, insondan barcha pedagogik sifatlarini qo'llashni talab etadi undagi mustaqillik hamda faollikni shakllanishidir. Shuning uchun ham, bugungi kunda ta'limning asosiy vazifasi talabalarni faol fikrlashga o'rgatish, alohida fanlarni o'qitishning aniq shakl va uslublarini izlashdan iborat.

Faol fikrlaydigan insondan mustaqil fikr shakllangan bo'ladi, u dunyoda kechayotgan muammolarga to'g'ri baho bera oladi. Bunday insonlar milliy ma'naviyatimiz asoslarini tez o'zlashtiradigan va ularni baholay biladilar. Bunday mutaxassisda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllangan bo'ladi.

Shuning uchun ham, oliy o'quv yurtlari bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviyaxloqiy sifatlarni shakllantirishga alohida ye'tibor qaratmoqlari kerak. Shundagina bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga tayyor bo'ladilar. Buning uchun

oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatga doir hamma sohada kompetentli bo'lishga tayyorlashlari ayniqsa muhim.

Pedagogika fani o'quv predmeti sifatida qanday qilib bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish yo'l-yo'riqlarini hozirgi zamon didaktikasi talablari asosida ko'rsatib berishi zarur. Bunday o'qitishda talabalar oliy o'quv yurtidayoq pedagogik san'at sirlarini o'rganib, hozirgi zamon talabidagi o'qituvchiga xos sifatlarni yegallay boshlaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy- axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda ularning keng dunyoqarashga yega bo'lishlari ma'naviy madaniyatimiz durdonalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari nihoyatda muhim ahamiyatga yega.

O'zbek xalqi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida o'ziga xos tarbiya maktabini yaratgan. Zardushtiylik dini shakllanib, keng yoyilgandayoq pedagogik g'oya ildizlari shakllangan. Bu zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da o'z ifodasini topgan.

Biroq bu davrda pedagogik nazariyani o'rganish chegaralangan. Hozirgi kunda islom va islomdan keyingi davr tarbiya to'g'risidagi manbalarni urf-odat, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini o'rganish muhim vazifadir. Mustaqillikka yerishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizda Yevropa pedagogikasiga asoslanib ish yuritdik. Hozirgi kunda Sharq pedagogikasiga ye'tibor ortmoqda. Chunki ilmu-fan va ta'lim-tarbiya, avvalo Sharqda taraqqiy yetgan, hurfikrlilik shu o'lkadan boshlangan.

Bu haqda Olmon olimi Xerler «Sharq Yevropaning muallimidir», - deganda yuz bora haq yedi. Ajdodlar ma'naviyati go'yoki bir dengizdir. Ma'lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ma'naviy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy ye'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi inson ongingin shakllanishiga turki bo'ladi. Bu jarayon ming-ming yillar davom yetib, inson ongi shakllanishiga asos bo'lgan axloq-qoidalari tarkib topadi.

Eng qadimiy yevropada afsonaviy obrazlar kishilarning his-tuyg'ulari, diniy ye'tiqodlar tarzida bo'lib, avlodlarimiz tafakkur dunyosida aks yetgan. Xalqning boy didaktik qarashlari uch asosiy manba asosida bizga yetib kelgan: xalq og'zaki ijodi materiallari; buyuk adiblar, allomalarining ijodiy merosi; arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

Qadimiy kishilar yoshlar tarbiyasida o'z imkoniyatidan kelib chiqib bolalarni mehnatda tarbiyalashga ye'tibor bergen. Shuningdek, rivoyatlarda vatanparvarlik tarbiyasiga ham katta ye'tibor qaratilgan. Jasurlik, kuchlilik, mardlik – xalq pedagogikasida zarur fazilat hisoblangan, bolani kichik yoshdan ana shu tarbiya bilan shug'ullantirilgan.

Tarixiy rivoyatlarda shaxslarda donishmandlik, qahramonlik, va axloqiy fazilatlar: nazokat, aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat,adolat, odamiylik kabilarni tarkib toptirish ulug'langan. Xalq og'zaki yeposlarda mustahkam ye'tiqod, xotin-qizlar fidoiyligi, jasorati, yerkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganligi yorqin ifodalangan. Yeramizdan oldingi axmoniyalar, saklar va massagetlarni o'zaro olib borgan janglari haqida ma'lumot beruvchi yodnomalar fikrimiz dalilidir. Turkiy xalqlar yosh avlod tarbiyasida axloq-odob ta'limini o'zida ifoda

yetgan. «Urxun Yenisey» yodgorliklari «Ilk yozuvlari», IV –V asr kishilari axloqiy qarashlarida boy materiallar beradi. Bitiktoshlarda turk xalqi jasorati, mardligi, yelparvarligi, o’z mustaqilligi yo’lida olib borgan mardonavor kurashi bugungi kun yoshlarida o’zlikni anglash milliy mafkura g’oyasini tarbiyalashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Yozma yodgorliklarni o’qigan har bir o’quvchi yoki o’spirin nodonlik, do’studushmanni ajrata bilmaslik, mol -dunyoga ruju qo’yish, mehnat qilmasdan tekin yashashga hirs qo’yish o’z boshiga kulfat olib kelishini anglab hayotda aql bilan ish yuritishga intiladi. Inson ongi ishga tushishi uchun, avvalo uning o’zi mas’ul bo’lishi farovon hayot kechirishga tinimsiz intilishi va mehnat samara berishi tushunib yetishi darkor.

VII asrda islom g’oyasiga asoslangan arab xalifaligi O’rta Osiyo xalqlari tarixida ma’naviy madaniyat rivojida asosiy bosqich hisoblanadi. Islom aqidalarining uning axloqiy tamoyil asosi «Qur’on» hisoblanadi. Musulmon maktablari tashkil yetilishi, arab tilini o’rgatilishi «Qur’on»dan saboq berilishi jahonshumul ahamiyat kasb yetadi. Chunki unda insonni kamolga yetkazishda unga beriladigan ilm dalil va isbotlar bilan aniq yetkazilishi ko’rsatiladi. Ilmning ikki turi – dunyoviy va diniy ilm «Qur’on»da keng targ’ib yetiladi. Mo’min-musulmonlar uchun lozim insoniy fazilatlar: yaxshilik xayri-ehson, qanoat, ota-onaga hurmat, farzandga hurmat, qarindosh-urug’larga, yetim va yesirlarga yaxshilik qilish, oila qurish, olivjanoblik kabilalar ulug’lanadi.

Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda hadis ilmining o’rni alohidadir. Buyuk hadisshunoslar Al-Buxoriy, At-Termiziyy yaratgan qadriyatlarda halollik, adolat, ye’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, mehr-muruvvat yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb yetadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati

1. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik,ezgulik va bunyodkorlik-Milliy G’oyamizning poydevoridir.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: Pedagog, 1992. - 160 b
3. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jomiy as-sahih (Ishonarli to’plam). 4 kitob. 1-kitob / Arabchadan Z.Ismoil tarjimasi. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. - 560 b
4. Rahmatullayeva, M. (2023). GORDON ALPORTNING SHAXS XUSUSIYATLARI KONSEPSIYASI HAQIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 180-185.
5. Rahmatullayeva, M., & Egamberdiev, J. (2023). THE MAIN PERIODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE IN UZBEKISTAN. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 120-124.
6. Rahmatullayeva, M., & Esanboyev, T. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHI VA O ‘SMIRLIK DAVRIDA MEN KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 186-191.

7. Rahmatullayeva, M., & Toshtemirova, N. (2023). SHAXSNING SOTSIAL-MADANIY NAZARYASI KREN XORNI TALQINDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 174-179.
8. Rahmatullayeva, M. (2023). BF SKINERNING OPERANT XULQ-ATVOR NAZARIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 199-204.
9. Kurolovich, S. L., & Umedovich, M. Y. (2023). LEXICAL LAYERS OF THE UZBEK LANGUAGE. Научный Фокус, 1(7), 13-16.
10. Umida, K., & Mushtariy, R. (2023). INFLUENCE OF FAMILY CONFLICT ON THE DEVELOPMENT OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENT AGE. International Journal of Advance Scientific Research, 3(06), 52-57.